

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## ARAB OLAMIDA TARJIMA VA NAQL HARA-KATI TARIXI

*Baxtiyor Irisov**O'qituvchi**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** tarjima harakati, tarjimonlar, xalifalar, Abbosiylar davri, Umaviylar davri, tibbiyot, falsafa, mantiq, falakshunoslik

**Annotatsiya:** Ushbu maqola islom tamaddunida asrlar davomida muhim ahamiyat kasb etgan tarjima harakatiga bag'ishlangan. Uning asosiy rivojlanish bosqichlarini aks ettirish jarayonida turli davrlarda hukmronlik qilgan arab xalifalari, qasr vazirlari, ko'plab sohalarda faoliyat ko'rsatgan ba'zi boy oilalar vakillari, olim va mutaxassislarining tashabbuslari bilan yunon, fors, hind, suryoniy tillaridan xorijiy tamaddunlar merosiga oid qo'lyozma, kitob va asarlar arab tiliga tarjima qilingan va, shu tariqa, arab merosi vujudga keltirilgan. Ayni paytda, turli sohalarda qalam tebratgan mutaxassislar faqat tarjima bilan chegaralanmasdan, balki o'zlari ham riyoziyot, tibbiyot, farmatsevtika, falsafa, mantiq va boshqa sohalar mutaxassislari tarjima qilgan asarlar ta'siri ostida ularga sharhlar, izohlar, raddiyalar yozib, ilm-fan rivojiga o'z hissalarini qo'shgan.

Shak-shubha yo'qki, tarjima faoliyati, birinchi darajada, jamiyatga zarur bo'lgan tibbiyot va falakshunoslik sohalarida amalga oshirilardi. Zero tibbiyotsiz hayot tasavvur qilinmagan. Falakshunoslik esa Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va quyoshning botish vaqtiga qarab namozni o'qish vaqti bog'liq bo'lgani hamda hilolning chiqish vaqtiga qarab esa – oylarning, xususan ramazon va hayitlarning kelish vaqti belgilangan.

Shu bois, tarjimonlar jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatlarini rejalashtirganlar.

Maqola arab olamida tarjima harakatining boshlang'ich bosqichini aks ettiradi.

## KIRISH

Arab tilida zamonaviy tarjimashunoslik to'g'risida so'z yuritilganda, birinchi darajada, tarjima harakati tarixini eslamasdan iloji yo'q.

Tarjima va naql faoliyati arab mamlakatlaridagi islom madaniyati rivojlanishi tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar arablarga dunyoning qadimgi mashhur sivilizatsiyalari meroslari bilan yaqindan tanishish imkonini yaratib, islom olamida ilm-fanga asos solish va uni rivojlantirishga ko'mak bergan.

Tarjima tarixi mavzui bilan tanishish jarayonida arab va islom olami hamda boshqa xalqlar Yunoniston, Hindiston va Eron sivilizatsiyalari allomalarining turli sohalarda yaratgan asarlarining arab va boshqa musulmon xalqlari tillariga tarjima qilinganini va tibbiyot, falsafa, astronomiya, kimyo, matematika, farmakologiya, geodeziya, falakshunoslik kabi ilmiy yo'nalishlarda nechog'lik buyuk yutuqlarga erishishganini shohidi bo'lamiz.

Shu bois ushbu muvaffaqiyatlar tarixini o'rganish ma'olaning muhim mavzularidan biridir. Xususan, milodiy VII asrning ikkinchi yarmidan VIII asrning birinchi yarmigacha va VIII asrning ikkinchi yarmidan XIII asrning birinchi yarmigacha hukmronlik qilgan umaviylar va abbosiylar davriga yunon, hind, fors va suryoniy tillaridan arab tiliga turli asar va yozma merosning tarjima va naql qilinishining birinchi bosqichi to'g'ri keladi.

Ushbu faoliyatning qizg'in pallasi xalifa Al-Mansur (714-775yy.) va xalifa Al-Rashid (766-809yy.) hijriy yilining I – II asrlarida hukmronlik qilgan davrni qamrab olgan. Quyida aynan shu davrda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ba'zi ma'lumotlarni taqdim etmoqchiman.

Xalifa al-Ma'mun (milodiy 786-833yy - hijriy 3-4 asr) oralg'ida yashab, tarjima va naql harakatining faollashishiga ko'mak bergan.

Xalifadan tashqari tarjima va naql harakati rivojlanishini boshqa davlat arboblari ham qo'llab-quvvatlashgan. Shu bilan birga islomdan oldin tuzilib, ushbu yo'nalishga sa'y-harakatlarini safarbar etgan qator madrasalar ham o'zlarining izini qoldirgan.

O'z davrining mashhur tarjimonlari faoliyati turli yo'nalishlarda bo'lib, tadqiqotlari bir-birlaridan farq qilgan bulsada, lekin ularning ish natijasi nafaqat tarjima va naql harakati rivojlanishining asosiy omili bo'lib xizmat qildi, balki islom tamaddunini yanada ilgarilab ketishiga ko'mak berdi.

Tadqiqot jarayonida mavzu bo'yicha ko'plab manbalardan istifoda etilgan. Ularning barchasi arab tilidagi asarlarda aks etgan.

Tarjima va naql faoliyatining islom sharqidagi rivojlanish bosqichlari to'g'risida so'z yuritsak, ular birinchi hijriy yili(VII milodiy yili)dan boshlangan. E'tiborga sazovor tomoni shundaki, bu faoliyat asrdan asrga tobora rivojlanib, turli sohalarni qamrab eta boshlagan. Shu bois II - hijriy yilida amalga oshirilgan ishlar I - hijriy yildagidan ancha farqlanadi. Xususan, buni tarjimonlar madaniyatining yil sayin oshib borishida, ularning tarjima qilinayotgan materialni tushunib, idrok qilishida, ish yuritish tillari soni va saviyasining oshishida, tarjima qilinayotgan manbalarning ortib borishida ko'rish mumkin. Ya'ni, vaqt omili bu faoliyatning rivojlanishi foydasiga xizmat qilganini shohidi bo'lish mumkin.

Tarjima va naql harakatining ikki asr - I- va II- hijriy yillari davomidagi rivojlanishi va ahamiyatini qayd etish lozim.

Manbalarda keltirilishicha, tadqiqotchilar tarjima faoliyatini amalga oshirish bilan mashg'ul bo'lganlarning ishtirokiga baho berishda bir-biriga zid fikrlar bilan chiqishgan.

Xususan, birinchi guruh I- va II- hijriy yillaridagi tarjima faoliyati rivojlanishini faqat Abbosiylar davri bilan chegaralanish zarurligini ta'kidlab, umaviylar davrini tushirib qoldirishni yoqlab chiqqan.

Ikkinchi guruh – ikkala davrda qilingan ishlarning ahamiyatini ko'rsatish zarurligini qayd etgan.

Uchinchi guruh – tarjima faoliyatini uch bosqichga bo'lish taklifi bilan chiqqan: xalifa Ar-Rashid va xalifa Al-Ma'mungacha bo'lgan davr, xalifa Ar-Rashid, xalifa Al-Ma'mun va Al-Barmakiylar oilasi davri va xalifa Al-Ma'mundan keyingi davr.

To'rtinchi guruh – Abbosiylar hukmronlik qilgan bir asr davomidagi tarjima faoliyatini uch bosqichga bo'lishni va Umaviylar davrini ko'rsatmaslikni taklifi qilgan: al – Mansur xalifaligidan boshlab, ar – Rashid xalifaligining nihoyasigacha ko'rsatish, al – Ma'mun xalifaligi davridan uchinchi asr oxirigacha qayd etish.

Beshinchi guruh – tarjima va naql faoliyati rivojlanishini ikki bosqichga bo'lishni taklif etgan: birinchi bosqich umaviylar davrida boshlanib, Ma'munning taxtga kelish davriga to'g'ri keladi. Ikkinchi bosqich esa al- Ma'mun xalifaligi davridan boshlanib, to undan keyin kelgan xalifalarni ham qamrab olishni ko'zda tutgan.

Lekin, aksariyat tadqiqotchilar umaviylar davridan to hijriy yilining IV asri yarmigacha tarjima va naql faoliyatini to'rt bosqichga bo'ladi:

1. Umaviy davri.
2. Al- Mansur va Ar- Rashid davri.
3. Al- Ma'mun davri.
4. Al- Ma'mundan keyingi davr.

Ushbu faoliyatning 4 bosqichga bo'lishda quyidagi omillar e'tiborga olingan:

1. Tarjima va naql harakatini moliyalashtirgan faol xalifalar;
2. Xar bir xalifalik davrida tarjima qilingan asarlar, ularning soni va sifati;
3. Tarjimonlar soni va saviyasining bir-biridan son va madaniyat jihatidan farqlanishi;
4. Tarjima va naql uslubining xilma-xilligida va h.k.

Mazkur barcha omillar ushbu yo'nalishdagi faoliyatning bo'linishiga sabab bo'lgan.

### **Umaviylar davrida tarjima va naql faoliyati**

Umaviylar asri tarjima va naql sa'y-harakatlarining boshlang'ich bosqichi bo'lib, aynan shu davr jarayonida islom sivilizatsiyasi va madaniyatida ushbu faoliyatga ilk bor asos solingan. Garchi bu yo'nalishdagi ijodiy ishlar keyingi bosqichlarda amalga oshirilganidan saviyasi jihatidan zaif va ibtidoiy tusga ega bo'lgan bo'lsada, lekin Umaviylar xalifaligi yillarida boshlangani va hanif islom dinining Sharq va G'arb davlatlarida tarqalishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'sha davr tarjimonlari zamonaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda, biror-bir asar va yozma merosni bir tildan ikkinchi tilga o'giranlar.

Xususan, jamiyat qaysi ilm-fanga ehtiyoji bo'lgan bo'lsa, o'sha sohalarni o'rganib, asarlarni tarjima qilishgan. Albatta, tibbiyot va odamlarni turli kasalliklardan davolashga bo'lgan talab kuchli bo'lgani uchun, shu sohaga falsafa va mantiqqa qaraganda ko'proq qiziqish bildirilgan. Ximiya va psixologiya ko'proq ustuvor ahamiyatga ega bo'lgani uchun unga oid bo'lgan yozma meros tarjimonlar e'tiborida bo'lgan.

### **Tarjima va naql xalifa al – Mansur va xalifa ar-Rashid davrlarida**

Bu davrlarda amalga oshirilgan ishlar Umaviylar hukmronlik qilgan yillarga nisbatan yanada keng tus olib, rivojlandi. Bu, xususan, tarjimonlar sonining ortgani, ularning

madaniyat saviyasining oshgani, tarjima qilingan materiallar xajmining ko'paygani, shu sohada faol ishlayotganlarni tashkilotchilar tomonidan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlangani va boshqa shu kabi omillar Umaviylar davridagi faoliyatning xalifa al-Mansur va xalifa ar-Rashid davrlariga nisbatan ancha zaif bo'lganidan dalolat beradi.

Ayni paytda tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, xalifa al - Rashid davrida tarjima va naql harakati xalifa al-Mansur zamoniga qaraganda ancha ilgari ketgan.

Shu o'rinda ingliz sharqshunosi De Lacy O'Leary (دي لاسي أوليري) (1872 -1957) aytgan so'zlarini keltirish joiz: "Tarjima ustida juda ko'p mutaxassislar ishladi. Ularning aksariyatini islomga kirgan masixiyalar, yahudlar va boshqa dinlar vakillari tashkil etdi".<sup>1</sup>

Ushbu davrning salbiy tomoni shundaki, tarjima va naqlni amalga oshirganlar o'zlarining qaysi dinga e'tiqod qilganlari, mazhablari hamda faoliyatlari davomida uchragan qiyinchiliklari, yunon va fors tillaridan arab tiliga qanday tarjima qilganlari to'g'risida ma'lumotlar qoldirmagan. Lekin arab tiliga o'girishda ular shak-shubhasiz ko'plab qiyinchiliklarga uchraganlar. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishda ijod ahli to'la erkinlikka ega bo'lib, suryoniy, yunon va fors olimlariga hamda boshqa dinlar arboblari murojaat etib, yengishga muvaffaq bo'lganlar.

Shu bois tarjima va naql faoliyati umaviylar asri oxirida va abbosiylar asri boshida, garchi yunon-arab, hind-arab, fors-arab lug'atlari bo'lmasada, lekin arab tili va xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan soha mutaxassislarining sa'y-harakatlari tufayli muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Arab tilida mavjud bo'lmagan so'z va iboralarni o'zgartirmasdan harfma-harf xorijiy tildagisi bilan ifoda etib, ularga sharx berish yoki imkon qadar ularni tarjimonning ma'noni anglash qudrati doirasida arablashtirish odat tusiga kirgan.

Milodiy I - va II - asrlardagi tarjimonlar ba'zida, jummalarni o'girishga qodir bo'lmaganliklari bois, to'laligicha o'zgartirmasdan xorijiy tildan arab tiliga ag'darishgan. Shu bois ko'plab xorijiy tillardagi so'zlar va mustalahotlar (terminlar) arab tiliga to'g'ridan-to'g'ri kirib, keng tarqalgan va hanuzgacha ishlatib kelinmoqda.

Garchi bu uslub salbiy deb baholansada, lekin qator tarjimonlar va o'giruvchilar, (xususan, Yuhanna ben al-Batriq, Abdulmasih ben Naa'ima al-Xomsiy,) shu tariqa, o'zlari uchun vaziyatdan chiqish imkonini yaratib, jummalarni to'laligicha o'zgartirmasdan xorijiy tillardan so'zma-so'z arab tiliga ko'chirganlar. Natijada ushbu uslubda tarjima qilingan kitobning asl ma'nosi yo'qolib, jummalarning bir-biri bilan bog'lanishi ham bo'lmagan. Tarjimadagi ushbu uslub to'g'risida gap ketganda, falsafa fanlari doktori Muhammad Abdurrahmon Marxabo (01.01.1925y. -20.07.2006y.)ning fikricha, u yunon tilidan arab tiliga harfma-harf tarjima qilgan suryoniyalar (Suriya hududida yashab, nasroniy diniga e'tiqod qilganlar) hamda arab tilidan yahud va lotin tillariga o'girganlar orasida keng yoyilgan. Ushbu uslubdagi harfma-harf tarjima arablar orasida keng tatbiq qilingan. Lekin milodiy IX asrda ijod qilib, suryoniy, yunon va fors tillarini mukammal o'zlashtirgan hamda arab tiliga Galen, Gippokrat, Aristotel asarlarini tarjima qilgan mashhur tarixchi va tarjimon Hunayn ibn Is'hoq (xijriy 194-260-yil / milodiy 809-873-yil) davridan boshlab, matnning to'g'ri ma'nosini yetkazish muhim vazifalardan biri bo'lib qolgan. Shunday bo'lsada, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida arab tilida yunon tilidagi so'zlar va terminlarning yo'qligi ko'plab so'zlarning tushirilishiga olib kelgan va bir tildan ikkinchi tilga o'girilayotgan asarning qimmatini yo'qotgan.

<sup>1</sup> الفكر العربي، 120. Arabic thought .

Tarjima qilish uslublaridan yana biri – jummalarning bir-biriga grammatik bog‘liqligini ta’minlab, to‘la ma’nosini o‘quvchiga yetkazish bo‘lgan. Aynan shu uslub mantiqqa va tushunishga yaqin, deb e’tirof etilgan.

Yuqorida qayd etilgan Hunayn ibn Is’hoq ham aynan shu uslubga rioya qilib, o‘z tarjimalarini amalga oshirgan.

Shu o‘rinda ensiklopedik tarixchi olim, adabiyotshunos, birinchi arab ensiklopediyasini yaratgan Butrus al-Bustaniy (1819-1883yy) quyidagi fikri bilan o‘rtoqlashgan: “Bu yo‘l to‘g‘riroq yo‘ldir. Shu bois Hunayn ibn Is’hoqning matematikaga oid kitoblaridan boshqa kitoblari, xususan, tibbiyot, mantiq, tabiatshunoslik va ilohiyotga oidlari tuzatish kiritishga muhtoj emas”.

Tarjima va naql faoliyatidagi yana bir keng tarqalgan uslublardan biri – bu xorijiy tillarda yozilgan matnlarning asosiy mazmunini olib, qisqartirishdir. Bu esa o‘z navbatida tarjimonning kitob ustida ishlab, uni qisqartirgani va zarur axborotni olganidan dalolat beradi. Ayni paytda ushbu uslub tarjima va naql faoliyatidagi boshqa uslublarga qaraganda qiyinroq va ahamiyatga molikroqdir. Zero u kitobning mazmuni va ma’nosini saqlagan holda, uni qisqartiradi va qayta shakllantiradi.

Qisqartirilishi lozim bo‘lgan kitobning tilini va mavzusini yaxshi bilish ushbu usulning asosiy xususiyatlaridan biridir. Tarjima va naql faoliyatining ushbu uslubida milodiy II asrda faoliyat yuritilgan. Misol tariqasida yetakchi tarjimon Abdulla bin al–Muqaffa’ al–Xatibni( 721 –756yy. )keltirish mumkin. U o‘z davrining yetuk tilshunosi bo‘lib, fors, yunon va hind tillaridan matnlarni arab tiliga tarjima qilgan.

Tarjima va naql faoliyatining islom mashriqida boshlanishi tasodif holat bo‘lmagan. Balki turli vaqt oraliqlarida bu jarayonga oldindan tayyorgarlik ko‘rilgan. Ushbu sa’y-harakatlarni faollashtirish va rag‘batlantirishda qator omillar sabab bo‘lgan. Ularning asosiylari:

1. Xalifalarning tarjima va naql harakatiga homiylik qilishi;

Xalifalarning tarjima va naql harakatiga homiylik qilishi ushbu faoliyatning ilgari ketishida asosiy omillardan biri bo‘ldi. Xususan, xalifa al-Mansur va xalifa al-Rashid o‘z zamonlaridagi tarjima harakatining asosiy homiylari bo‘lish bilan birga Abbosiylar xalifalariga ham o‘rnak bo‘lganlar. Agar ularning bu yo‘nalishdagi faoliyatiga bergan e’tiborlari keng tus olmaganda edi, uning natijasi bu darajada samarali bo‘lmagan bo‘lard.

Xalifa al-Mansur va xalifa al-Rashid ushbu sohada turli moddiy va ma’naviy yo‘l va uslublarni qo‘llaganlar. Madomiki ikki xalifa rolining tarjima va naql harakatini rivojlantirishda muhim omil deb qarar ekanmiz, ularning homiylik ko‘rsatkichlari bir darajada bo‘lmaganligini va ular orasida katta tafovut borligini qayd etish joiz. Shu o‘rinda o‘sha davrda yashab ijod qilgan olim Ahmad Amin fikrini keltirish maqsadga muvofiqdir: Abbosiy xalifalaridan o‘z davrida bu sohaga eng katta qiziqish bildirganlari - bu xalifa al-Mansur, xalifa al-Rashid va xalifa al-Ma’mundir. Ular asosan tibbiyot va tabiblar faoliyati hamda astrologiyaga e’tibor qaratishgan.

Arab mutafakkirlari yetakchilarining yunon ilm–faniga etiyojlari borligini qayta–qayta ta’kidlashgani bois, bu yo‘nalishlardagi barcha to‘siqlarni yengishga qaratilgan sa’y–harakatlarini safarbar qilishgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, xalifa Al–Mansur davrida tarjima qilingan kitoblar orasida qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel (eramizdan avval 384 vafot etgan – 322-yilda tug‘ilgan), matematika sohasida tengi yo‘q yunon olimi Yevklid(milodiy III – asrda yashab ijod qilgan)ning kitoblari hamda yunon matematigi, fizigi va falakshunosi

Klavdiy Ptolemey (90y.–168y.orasida yashagan. 127–151-yillarda. Misrning Aleksandriyada shahrida astronomik kuzatuvlar olib borgan)ning “Almagest” kitobi va boshqa falakshunoslar, tibbiyotshunoslar, matematiklar, faylasuflar asarlari mavjud.

Arablarning falakshunoslik bilan qiziqishlarining asosiy sabablari bu yulduzlarning nomlarini bilish, ularni bir–biridan ajratish, quyoshning o‘z o‘qi atrofidagi aylanishini kuzatish va shu tariqa har bir mamlakatda namoz o‘qish vaqtlarini belgilash, Ramazon va boshqa hijriy oylarining kelishini aniqlash uchun hilolning chiqishini kuzatish, namoz o‘qishda mamlakatning joyini bilish va Qibla tarafini belgilash, geografik joylarning uzunlik va kengligini aniqlash uchun zarur edi.

Livanlik adib, tarixshunos, yozuvchi, publitsist, tilshunos (suryoniy, fransuz, ingliz, ibriy tillarini o‘zlashtirib, tarjima faoliyati bilan shug‘ullangan) Jurji Zaydan(1861y. –1914y. “Islom sivilizatsiyasi tarixi”, “Arab tili adabiyoti tarixi”, “Sharq mashhurlarining tarjimalari”)ning fikricha, “xalifa al – Mansur qadimgi kitoblarni tarjima qilish faoliyatida astronomiya, handasa, tibbiyotga alohida ahamiyat bergan. Falsafa, mantiq va boshqa fanlarga oid kitoblar xalifa al–Ma‘mun davrida tarjima qilingan, – deb ta’kidlaydi.

تاريخ التمدن الإسلامي، 157-210. كذلك أبو ريان : تريخ الفكر الفلسفي. ص.87-8، العبادي، عبد الحميد: (الدولة الإسلامية ص.53).

Tarjima va naql harakatiga nafaqat xalifalar, balki ba’zi oilalar ham katta qiziqish bildirib, uni faollashtirish va moliyalashtirishni ta’minlaganlar. Bunday oilalar sirasiga Barmakiylar oilasi kiradi. O‘z davrining mashhur oilalaridan biri bo‘lib, Abbosiylar xalifaligini qo‘llab–quvvatlash va mustahkamlashda hamda tarjimonlarni va barcha ilm ahlini moliyaviy qo‘llab–quvvatlashda bu oila a’zolarining roli kattadir. Xususan, xalifalikni har tomonlama rivojlanishida ishtirok etib, uning oltin davrini qurishga muvassar bo‘lganlar.

Suriyalik tibbiyotshunos olim Shavkat al–Shattiyning so‘zlariga ko‘ra, tarjima faoliyati Abbosiylar davrida davlat va jamiyat a’zolarining vazifasi bo‘lgan. Shu bois ba’zi oilalar chet tillarini o‘rganib, tarjima qilishga ixtisoslashish bilan birga, tarjima qilingan matnlarni tuzatish hamda madrasalarda tarjimonlik va musahhihlik mutaxassisliklarini o‘rgatishga kirishgan edi.

Tarjimonlik va musahhihlik mutaxassisliklarining madrasalarda o‘rgatilishi va soha ahlining moliyaviy qo‘llab–quvvatlanishi, turli asarlarni bir tildan ikkinchi tilga, xususan, yunoniy tiliga o‘girishga bo‘lgan qiziqishning ortishiga sabab bo‘ldi.

O‘sha davr vazir va tabiblarining turli tillardagi, xususan, yunon tilidagi asar va meroslar tarjimalariga ega bo‘lish niyatlari natijasida tarjimonlar faoliyatiga homiylik qilish keng yoyildi.

Ayni paytda tarjimonlikka katta turtki bergan omillardan yana biri – bu arablarning ulardan oldingi xalqlar sivilizatsiyasida erishilgan yutuqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga va merosiga ega bo‘lish rag‘batidir. Shu bois islom mashriqida turli vaqtlarda birinchi darajada tabobat va hastaliklar muolajasiga oid tarjimaga so‘ng falsafa va mantiqqa oid matnlarga e’tibor qaratilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, xalqlar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar va aloqalar o‘zaro tarjima faoliyatini kuchaytirish bilan birga, shu sohada ijod etishni rag‘batlantirib, samarasini yanada ziyoda qilgan.

Shu bilan birga arablar va eronliklar o‘rtasida hamda yoshi ulug‘ arablar va yosh tarjimonlar o‘rtasida o‘rnatilgan kuchli aloqalar birinchi Abbosiylarning oltin davrida (750-847milodiy yy., 132-232hijriy yy.) tarjima harakatining rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Ayni paytda jamiyatning boshqa xalqlar ilm-faniga ehtiyoji bo‘lgani sababli ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarjima qilishga qiziqish tobora oshgan. Xususan, yuqorida qayd

etilgan tibbiyot va hastalıklarni davolash bilan birga ularning qishloq xo'jaligi va sanoatini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari doim e'tiborda bo'lgan. Shu bilan birga xalifalik tashqarisidagi xalqlarning ma'naviy va ruhiy hayoti, adabiyoti, ularning she'r san'ati, novelistikasi ham qiziqish uyg'otgan.

### **Tarjimonlar tabaqalari**

Tarjimonlar jamoalari faoliyati ilm-fan rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. E'tiborli tomoni shundaki, ular turli millatlar va dinlar vakillari bo'lib, islom, nasroniy dinlariga hamda majusiylikka (butparast, otashparast, ibtidoiy din vakillari) e'tiqod etgan arablar, forslar, hindlardan iborat edi. Ular bir-birlaridan ko'p jihatdan farqlanib, tillarni o'zlashtirib bilish, tarjima qilishdagi saviyasi, qobiliyati va madaniyati yuksakligi, o'z asri tarjima faoliyatidagi ahamiyati va boshqa jihatlari bilan ajralib turardi.

Hijriy yillarining I - asri (622-717yy) va II –asri (719-816 yy)da Bag'dodga turli diyorlardan, xususan, tamadduni rivoj topgan suryoniyalar, forslar, hindlar ilm ahli vakillari kela boshlagan. Ular arab tilini o'rganib, musulmonlar bilan turli sohalarida ilmiy muhokama va munozaralar olib borish bilan birgalikda tibbiyotga oid kitoblarni o'qib, ularni tarjima qilishga e'tiborlarini qaratdilar. Bu sohada faoliyat yuritgan mutaxassislarining aksariyati boshqa dinlar vakillari bo'lib, falsafa va mantiqqa ham qiziqish bildirishgan edi. Bu esa o'z navbatida xalifalarda ham bu fanlarga qiziqish uyg'otgan. Shu bois ular askarlarning boshqa mamlakatlarga yurishlari paytida topilgan kitoblarni yondirish emas, balki asrab avaylab Bog'dodga olib keltirish va ularni tarjima qilishni talab qiladigan bo'lishgan. Buning evaziga ularning ba'zilariga rag'batlantirish maqsadida maosh va haqqini berish odatini kiritishgan. Natijada, tarjimonlikka talab ortib, bu soha mutaxassislari hurmati tobora oshgan. Ularning aksariyatini yunon tilini puxta bilgan va yunon allomalarining falsafa va turli ilmlar merosini o'zlashtirgan suryoniyalar hamda hind va fors millatlariga mansub bo'lganlarning o'z tillaridan arab tiliga tarjima qilgan bir necha avlod vakillari tashkil etgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ilm-fanga oid matnlarni tarjima qilish uchun nafaqat tillarni mukammal o'zlashtirish zarur, balki tarjima qilinishi kerak bo'lgan modda sohasidan ham xabardor bo'lish talab etilgan. Shu bois tarjimonlarning aksariyati nafaqat bir tildan ikkinchi tilga o'girish bilan shug'ullangan, balki o'zlari tanlagan tibbiyot, falsafa, mantiq va boshqa sohalar mutaxassislari bo'lib, shu yo'nalishda ilmiy asarlar yozishgan.

Olimlar e'tiborini o'ziga jalb etgan yana bir jihatlardan biri – bu xalifalarning tarjima faoliyati yo'nalishlarini belgilab berishi yoki mavzularni tanlash huquqini tarjimonlarning o'ziga erkin qo'yib berishi hamda ushbu sohadagi barcha ishlarni rag'batlantirib, mutaxassislarni moliyaviy va moddiy qo'llab-quvvatlashidir.

Tarjima faoliyatining keng miqyosda tarqalib, rivojlanishida bir – biriga zid ikki sababni keltirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchisi, livanlik tarixchi, adib, publitsist Jurji Zeydan(1861–1914yy.)ning fikricha, tarjimonlarning tarixiy voqealarni va adabiy asarlarni arab tiliga tarjima qilishlaridan maqsad – bu o'zlarining otalari va ajdodlari faoliyati va meroslarini ko'rsatishdir. Bu xususda u shunday deydi: “Tarixiy va adabiy matnlarni suryoniy, fors va hind tillaridan arab tiliga tarjima qilish orqali tarjimonlar asosan o'z ajdodlari va qo'shnilari qahramonliklarini ko'rsatish niyatida bo'lganlar”

Ikkinchisi – livanlik adib, tilshunos olim Umar Farux (1904–1987yy.)ning birinchi fikrga qarshi fikri bo'yicha, ba'zi suryoniyalarning o'z madaniyatiga bo'lgan muhabbati va uni keng yoyish rag'bati falsafaga oid kitoblarni arab tiliga tarjima qilishga undagan. Lekin

qanday bo'lsin, olimlarning fikricha, tarjimonlarning aksariyati tarjima faoliyati bilan moliyaviy qo'llab – quvvatlangandan so'ng ishni boshlaganlar.

Jurji Zeydanning aytgan fikri ham haqiqatga to'g'ri keladi:

To'g'riligi shundaki, forslarning o'zlari tilidagi tarix va adabiyotga oid bo'lgan merosni tarjima qilishidan maqsadi ajdodlari buyukligini namoyon etish edi. Bu ham, o'z navbatida, tarjima harakatining faollashuviga turtki bergan omillardan biridir.

Ayni paytda Umar Farux tarjima harakatini moliyaviy va moddiy qo'llab–quvvatlash bu sohadagi faoliyatni yanada rivojlanishiga sababchi bo'lganini ham ko'rsatadi.

### **Populistik harakat**

Ushbu harakat tarjima faoliyatining rivojlanishida, xususan, hijriy yilining I-asri(622-717yy)da al–Mansur va al–Rashid abbosiylar xalifalari davrida juda katta rol o'ynagan.

Aynan shu davrda fors tarjimonlari sa'y–harakatlarini o'zlarining yozma meroslarini arab tiliga o'girishga qaratgan edi. Undan maqsad qadimgi fors ilm ahlidan qolgan qo'lyozmalarni arablarga yetkazish va ularga: “Bu bizning meros, sizlarning ham merosingiz bormi, ey arablar?” – degan savolni berish edi.

Forslarning ushbu sohadagi eng yetakchi tarjimoni, iste'dodli adibi va yozuvchisi – Abdulla ibn Muqaffa' edi.

Komil Darvesh va al–Xuriy Tanyus Mun'im olimlarining aytishicha, xalqlarning bir–biri bilan aralashib ketishi ham tarjima faoliyatining yanada keng tus olishiga sabab bo'lgan.

Abbosiylar xalifaliklari davrida siyosiy mavqelarini yo'qotgan eronliklar o'zlarining adabiyot va san'at sohalarida erishgan yutuqlari bilan birga yunon va hind madaniyatlariga oid asarlardan iqtibos etilgan ma'lumotlarni ham tarjimalariga qo'shib, ularni arab tiliga tarjima qilishgan va shu tariqa o'zlarining adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, jamiyatshunoslik sohalaridagi yutuqlari, deb ko'rsatishgan.

Falsafa fanlari doktori Muhammad Abdurrahmon Marxabo (01.01.1925y. - 20.07.2006y.)ning ta'kidlashicha, arablar va populistlar (o'zlarini maqtab, hurmat orttiradiganlar – شعوبيون) o'rtasidagi raqobat tarjima faoliyatida muhim omillardan biri bo'lgan. Yuqorida qayd etilgandek, populistlar ajdodlaridan qolgan yozma merosga oid qo'lyozmalarni tarjima qilib, arablarga o'zlarining xalqlari madaniyatining yuksakligini namoyish etish niyatida bo'lganlar. Aynan shu sabablar Ibn al–Muqafa'ni “Kalila va Dimna” kitobini fors tilidan arab tiliga tarjima qilishga va ularni kamsitishga undagan.

### **Qog'oz ishlab chiqarish sanoatining vujudga kelishi**

Qog'oz sanoatining vujudga kelishi nafaqat tarjima harakati rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'ldi, balki ushbu harakatning barcha sohalarini, xususan, asarni ta'lif etish va nusxa ko'chirish hamda turli manbalardan arab tiliga tarjima qilingan asar va kitoblarni varaqda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa ushbu harakatning yanada keng doirada tarqalishiga turtki berib, ilm–fan, adabiyot, san'at va boshqa sohalar rivojlanishida o'z aksini topdi.

Tarjima harakatining keng miqyosda tarqalishi va yangi asarlar yozilishi qulay muhit sharoiti yaratilganidan dalolat beradi.

Xalifalik sharqiy qismida Al–Rashid va al–Ma'mun hamda ulardan keyin kelgan xalifalar davrlarida qog'oz ishlab chiqarish sanoati tobora rivojlanib, uning mahsuloti keng iste'mol etila boshlandi. Bu esa Yevropa mamlakatlariga ham shu sanoatning kirib borishi va uning jadal sur'atlarda rivojlanishiga sabab bo'lgan.



Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qog'oz ishlab chiqarish sanoati qadimdan Xitoy va Uzoq Sharq davlatlarida vujudga kelgani ma'lum. Qog'oz xamiri yoki, boshqa ibora bilan aytganda, xom ashyosi ipakdan va zig'ir o'simligi po'stlog'idan ishlab chiqarilar edi. Arablar Movaraunnahrni VII-VIII asrlarda fath etganlaridan so'ng Samarqandda qog'ozga duch kelishgan. Garchi uni ko'rgan zahoti e'tibor berishmagan bo'lsada, lekin biroz vaqt o'tgandan keyin uni ishlab chiqarish jarayoni bilan yaqindan tanishib, xalifalikning sharqiy qismida qog'oz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishgan. Shu tariqa sanoatning bu sohasi rivojlanib, kitob nashr etish keng yoyilgan. Ayni paytda qog'oz ilm-fanning ilgari ketishiga va savodsizlikka chek qo'yishga hamda kelajak yosh avlodga nurlil yo'l ochishga imkon bergan.

Qog'ozning ixtiro etilishi va uning ishlab chiqarilishi hamda keng iste'mol qilinishi natijasida kitob nashr etish sohasi vujudga kelgan. Bu esa islom sivilizatsiyasi tarixida muhim bosqich bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qog'oz ishlab chiqaruvchilar ayni paytda kitobni nashr etish, matnini tas'hihlash va tahrirlash, kitobni o'zini g'iloflash, sotish bilan shug'ullanib, jamiyatning madaniyat, ma'naviyat, ta'lim, ilm-fan sohasini ilgari surishga ko'mak berishgan va shu tariqa ularning mehnati katta hurmatga sazovor bo'lgan.

Xalifalikning turli chekkalarida ochilgan ularning do'konlari esa tarjimonlar va ijodkor yozuvchilarning uchrashuv joylariga hamda adiblarning muloqot va munozaralar markaziga aylangan.

Shunday qilib, qog'oz ishlab chiqarish sanoati xalifalikda madaniyat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, ilm-fanni keng yoyishda muhim omillardan biri bo'lib, tarjima harakatini yanada faollashtirgan.

### **Islom dinining ruhi**

Islom dinining fath etilgan hududlarda tarqalishi ilmiy faoliyat rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Ma'lumki Qur'onu Karim oyatlari, Payg'ambarimizning (S.A.V.) ilm-fan va olimlar bilan bog'liq bo'lgan hamda musulmon ahliga qaratib, ilm talab qilishga chorlaydigan xadislari ko'pdir.

Xammaga ma'lumki, Makkada nozil bo'lgan Qur'onu Karimning 96 - Alaq surasi ilk suralardan biridir. Ushbu surada :

باسم الله الرحمن الرحيم

إقرأ،

بسم ربك الذي خلق،

خلق الإنسان من علق،

إقرأ و ربك الأكرم،

الذي علم بالقلم،

علم الإنسان ما لم يعلم

Mehribon va Rahimli Alloh nomi bilan

O'qing!

Insonni laxta qondan yaratgan Parvardigoringizning nomi bilan,

O'qing! Qalam bilan (yozishni) o'rgatgan o'ta karamli Parvardigoringiz,

Insonni bilmagan narsasini o'rgatgan.

Mazkur oyatlar bilan Yaratganimiz insonlarni bilim va ta'lim olishga, ilm va ma'rifatga chorlaganlar.

Shu bois islom olamida ilmiy faoliyatning rivojlanishida islom dini muhim omil bo'ldi va musulmonlarning o'qishga, mutolaa qilishga, tadqiqot va izlanishga kirishishga sabab bo'ldi.

Xalifalikning ko'plab vakillari Sharq va G'arb mamlakatlariga borib, falsafa, tibbiyot, astronomiya, qurilish handasasini o'rgatdilar va islom olamida ilmiy uyg'onish davrini vujudga keltirishga muvaffaq bo'ldilar.

### **Arablar tili**

Madomiki tarjima va naql harakati rivojlanishining omillari to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, turli tillardan, xususan, yunon, hind, fors va boshqa tillardan ilm – fanning ko'plab sohalari o'z asarlarining arab tiliga o'girilishi uning nechog'lik boy til ekanligidan hamda xar qanday vaziyat va holatlarda ham xorijiy tillardan olingan so'zlar arab tilida ifoda etish imkoni mavjudligidan dalolat beradi. Garchi tarjima harakati faoliyati boshida arab tillariga sofistika (سوفسطيكا), qatag'uriyas (قاطاغورياس), arismatika (ارثماتيكا), kabi so'zlar yunon tilida qanday talaffuz qilinsa, shunday o'girilgan bo'lsa, biroz vaqt o'tgandan so'ng ular oldingi so'zlarni tark etib ularning arab so'zlarini topib, tatbiq etishgan:

المغالطة ، المقولات ، علم الحساب

### **Islom ahlining tarjima faoliyatiga qiziqishi**

Islom ahlining ilm–fanga qiziqishining ortishi tarjima faoliyatining rivojlanishiga kuchli turtki berdi, xususan, yunon falsafasi va boshqa sohalarga oid asarlar, ilmiy mavzular va har qanday hajmdagi ma'lumotlar arablarning e'tiborini o'ziga tortdi. Birinchi darajada ular o'z fikrlarini qo'llab-quvvatlashga erishish, so'ng ularga qarshi bo'lgan fikrlarga raddiya berish maqsadini oldilariga qo'yishdi.

Ushbu qarama-qarshilik musulmonlarning falsafaga oid kitoblarga bo'lgan qiziqishi va talabini oshirib, tarjima harakatini yanada faollashtirishga olib keldi.

Diniy harakat umaviylar davlati nihoyasiga yetganda mislsiz rivojlanishga erishdi. Boshida musulmonlar xalifalikka xorijdan kelgan yangi ilmiy ma'lumotlar asosida o'zaro bahslashib, fikr almashgan bo'lishsa, keyinchalik ular turli sohalarda bahslashuv va tortishuvlarni yunon mantiqi va falsafasi bilan qurollangan nasroniy va yahudlar bilan o'tkazishgan. Aynan ushbu bellashuvlar natijasida musulmonlar ham falsafa va mantiq sohasidagi bilimlarining o'z dinlarini himoya qilishda zarurligini sezishib, ushbu ilmlarni o'zlashtirishga kirishgan va keng fikrlash qudratiga ega bo'lib, o'zlarining aqliy ustunligidan qanoatlanishgan. Shu bois xalifalik musulmonlarining islom dinini himoya qilish yo'lida falsafa va mantiqqa bo'lgan qiziqishi tobora oshgan. Bu esa, o'z navbatida, yuqorida aytilganidek, xorijiy tillardan arab tiliga o'girish bilan bog'liq sa'y-harakatlarning yanada tez sur'atlarda amalga oshirilishiga xizmat qilgan.

Vujudga kelgan vaziyat yunon falsafasi, mantiqi va metafizikasiga oid kitoblarning tarjimasini amalga oshirishga bo'lgan intilishi zamon talabiga mosligidan dalolat berib, islom ulamolarining nasroniy, yahudiy, majusiy dinlar vakillari bilan suhbat qurish uchun bilim darajalari ularnikidan ustun bo'lishi zarurligini va yunon mantiq qoidalari va falsafa tamoyillariga muvofiq bo'lishi shartligini ta'kidlashgan. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, xalifa al-Ma'mun Bog'dodda "Dor ul-hikma"ga asos solgan.

Musulmonlarning ikki mazhab – sunniy va shiaga bo'linib ketishi ham tarjima faoliyatining jonlanishiga sabab bo'ldi. Falsafa esa ularning qo'llarida qurol vazifasini ado etdi. Shu tariqa musulmonlar Qur'onu Karim ma'nolari borasida g'ayridinlar bilan faylasuflashib, ularga uning suralari va oyatlarida keltirilgan ma'nolarini tushintirishga harakat qilishardi va o'zlarining so'zlarini to'g'riligini ta'kidlab, dalillar keltirishardi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. حركة الترجمة و النقل في المشرق الإسلامي في القرنين الأول و الثاني للهجرة. تأليف الدكتور رشيد الجميلي أستاذ التاريخ الإسلامي المساعد، كلية الآداب و التربية جامعة قاريونس. منشورات جامعة قاريونس.
2. حركة الترجمة و النقل في المشرق الإسلامي في القرنين الثالث و الرابع للهجرة. تأليف الدكتور رشيد الجميلي. الكتاب و التوزيع و الإعلان و المطابع، طرابلس-الجمهورية العربية الليبية الشعبية الاشتراكية. الطبعة الأولى 1982م-1391هـ.
3. الجزء الأول، موسوعة الفلسفة و الفلاسفة. أ-ض، جماع المذاهب و الأنساق و المدارس المختلفة في الفلسفة ، و في نظرياتها في الشرق و الغرب، و عند فلاسفة اليهودية و النصرانية و الإسلام، و فلاسفة العربية، و الفلاسفة المصريين. تأليف دكتورم/ عبد المنعم الحفني، الناشر مكتبة مدبولي. 1999
4. الجزء الثاني، موسوعة الفلسفة و الفلاسفة. ط-ي، جماع المذاهب و الأنساق و المدارس المختلفة في الفلسفة ، و في نظرياتها في الشرق و الغرب، و عند فلاسفة اليهودية و النصرانية و الإسلام، و فلاسفة العربية، و الفلاسفة المصريين. تأليف دكتورم/ عبد المنعم الحفني، الناشر مكتبة مدبولي.
5. د. خليل أحمد جليل، مستقبل الفلسفة العربية. المؤسسة الجامعية للدراسات و النشر و التوزيع. بيروت 1981.
6. تأليف شمس الدين الشهرزوري، تحقيق د. عبد الكريم أبو شويرب، تاريخ الحكماء، نزهة الأرواح و روضة الأفراح. جمعية الدعوة الإسلامية العالمية. الطبعة الأولى، ذو الحجة 1398 من وفاة الرسول (صلى الله عليه و سلم) الموافق ناصر/ يوليو 1988م.
7. نجيب غزاوي. الترجمة في العصر العباسي: مدرسة حنين بن إسحاق وأهميتها في الترجمة. دمشق، 1998.
8. الدكتور محمد عبدالرحمن مرحبا: من الفلسفة اليونانية الى الفلسفة الإسلامية. موسوعة فلسفية شاملة. عويدات للنشر و الطباعة. بيروت – لبنان، المجلد الأول. الطبعة 2000 – 1420هـ.
9. الدكتور محمد عبدالرحمن مرحبا: من الفلسفة اليونانية الى الفلسفة الإسلامية. موسوعة فلسفية شاملة. عويدات للنشر و الطباعة. بيروت – لبنان، المجلد الثاني. الطبعة 2000 – 1420هـ.
10. تاريخ فلاسفة الإسلام في المشرق و المغرب. الكندي – الفارابي – ابن سينا – الغزالي – ابن باجة – ابن طفيل – ابن رشد – ابن خلدون – إخوان الصفاء – ابن الهيثم - محيي الدين بن العربي – ابن مسكويه. تأليف محمد لطفي جمعة. "حقوق الطبع محفوظة للمؤلف". نجيب ميري، صاحب مطبعة المعارف و مكتبتها بمصر. 1345هـ. – 1927 م.
11. الدكتور محمد علي أبو ريان أستاذ و رئيس قسم الدراسات الفلسفية و الإجتماعية بجامعة الإسكندرية و بيروت العربية. دار النهضة العربية للطباعة و النشر. بيروت – ص.ب. 110749